

учебного процесса компьютерной и компьютерной техникой; использование систем объективного контроля и оценки качества обучения; психолого-педагогические исследования по проблемам развития и оценки интеллекта, способностей и человеческих качеств специалиста, а также проблемы его профессионального восприятия; высокий уровень материальной и социальной защиты педагогов.

Естественно, что творческое применение опыта промышленно развитых и интеллектуально развитых стран позволит реформированной системе образования повысить качество обучения, чтобы выдерживать конкуренцию на всех уровнях.

Развивать когнитивные качества человека, развивать навыки различения этих основ, развивать навыки планирования, тезисов, абстрагирования, наблюдения, экспериментирования, а также навыки частичного поиска; развитие общих и политехнических качеств, творческих подходов студентов к решению различных задач, развитие оперативных и управляющих качеств, использование техники, планирование, оценка результатов действий, управление и контроль своих действий, развитие педагогических навыков, умения работать в необходимом темпе чтение, письмо, измерение, рисование, подведение итогов, развитие техники наблюдения, определение цели наблюдения, знание его последовательности, знание состава наблюдаемых объектов и развитие свободы и независимости для развития инициативы, уверенности в себе, усердия, трудностей в достижении цели ориентированы на формирование навыков овладения, самоконтроля, самостоятельных действий.

Организация и управление и развитие учебных занятий в высших учебных заведениях пропорционально секторам экономики, ориентация студентов на конкретные профессии и трудоустройство выпускников по профессии, активный диалог и сотрудничество работодателей и выпускников на основе педагогических и современных информационных и коммуникационных технологий играет важную роль [3].

Таким образом, все усилия в учебных заведениях, включая обучение, направлены на подготовку квалифицированных кадров, развитие гармонично развитых личностей, способных в полной мере проявить свои таланты и способности, найти свое место в жизни. Такая работа, которая сегодня приносит свои плоды, послужит обеспечению высокого развития нашей страны в будущем, дальнейшему повышению благополучия нашей жизни. Для этого необходимо определить педагогические цели и задачи, реализовать задачи по использованию передовых педагогических и информационных технологий в организации и управлении обучением. Это, в свою очередь, способствует повышению эффективности этого процесса.

Список литературы:

1. Постановление Президента Республики Узбекистан от 5 июня 2018 г. ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших учебных заведениях и обеспечению их активного участия в проводимых комплексных реформах в стране».
2. Джалолов А.К., Аноркулова Г.М. Принципы организации образования как процесса в системе высшего образования // Материалы республиканской научно-практической конференции «Перспективы системы повышения квалификации и переподготовки кадров с учетом потребностей системы высшего образования». –Т., 2005. - Б. 39-41.
3. Аноркулова Г.М. Факторы, влияющие на организацию образовательного процесса в высших учебных заведениях // Материалы Республиканской научно-практической конференции «Научно-методические основы обеспечения качества подготовки, переподготовки и повышения квалификации преподавателей для высшей школы». - Т., 2006. - Б. 14-16.

INNOVATSION VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDAGI AHAMIYATI

Mirazimova Muxabbat Normatovna

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi mashg'ulotlar jarayoniga innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ahamiyati hamda shu asosda ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish imkoniyatlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsion, pedagog, axborot texnologiyalari, maktabgacha ta'lim, mashg'ulot, ta'lim va tarbiya, Davlat standarti, axborotlar ko'lami, axborot-kommunikatsiya.

Ilmiy kuzatish va tadqiqotlar natijasida inson o'z hayoti davomida oladigan barcha ma'lumotning yetmish foizini besh yoshgacha bo'lgan davrda olib ulgurishi aniqlangan. Ta'lim-tarbiya jarayoniga bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-axloqiy va jismoniy rivojlantirishni ta'minlaydigan zamonaviy ta'lim dasturlari, ilg'or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish, ularni maktabga tayyorlash darajasini oshirish, maktabgacha ta'limni boshqarishning zamonaviy standartlarini yaratish[2] eng muhim va dolzarb vazifalardan biridir. Mamlakatimiz hayotida olib borilayotgan keng siyosiy va ijtimoiy islohatlar doirasida maktabgacha ta'limda ta'lim va tarbiya faoliyatini olib borishda sifatni oshirish, ta'lim - tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik innovatsion va axborot kommunikativ raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda zarur shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimizda hukumatimiz tomonidan maktabgacha ta'lim bo'yicha samarali islohotlar olib borilmoqda. Izchil islohotlarning natijasi sifatida yurtimizda ilk bor O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son[1] "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori, 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son[2] O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 – yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11 iyun 2019 yildagi 487-son [3] "Maktabgacha ta'lim tizimiga ilg'or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari mazkur sohani yanada takomillashtirishga hamda maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining ajralmas bo'lagiga aylanganligi, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan zamonaviy ta'lim dasturlari hamda texnologiyalarini joriy etish orqali sifat darajasini oshirishga, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilayotganligi buning yorqin dalilidir.

Respublikamiz hayotining ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy axloqiy va axborotkommunikatsiya hamda ta'lim tizimidagi tizimli o'zgarishlari inson hayot faoliyatini jiddiy o'zgartirmoqda. Mustaqil mamlakatda har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashdek sharaflil va ma'suliyatli ishda ta'lim-tarbiya tizimining boshlang'ich bo'g'ni bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimi muhim o'rin tutadi. Bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo'lgan yoshda aqliy faollik oshadi, ahloqiy estetik va jismoniy hislatlar shakllanadi. Shu bois ham kelgusi yillarda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz – ijtimoiy ahvolidan qat'iy nazar, bog'cha yoshidagi har bir bolani ushbu ta'lim yo'nalishi bilan to'liq qamrab olish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat. Bu kabi yangilanishlar pedagogik innovatsiyalarning ta'lim sohalari va uzluksiz ta'lim tizimiga jadal kirib borishini taqozo etmoqda. "Innovatsiya" lotincha so'z bo'lib, yangilanish, yangilik kiritish, "yangilik" ma'nosini ifoda etadi. Innovatsion ta'lim-tarbiya jarayonining shakli va mazmunini takomillashtirishga xizmat qiluvchi yangi g'oyalar yaratishni ko'zda tutadi. Innovatsion g'oyalar bugungi ta'lim amaliyotiga jadal kirib bormoqda. Pedagogik innovatsiyalar ta'lim sifati va samaradorligining ortishiga xizmat qiladi, jamiyatdagi har qanday yangilanish jarayolari, islohotlar mohiyati bilan uzviy big'liq holda ro'y beradi.

O'zbekiston Respublikasining 23 sentabr 2020 yildagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 8-moddasida: "Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-ahloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan

rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir"[3], - deyilgan.

Bugun biz axborot texnologiyalari rivojlangan, axborotlar ko'lami benihoyat ko'payib ketgan asrda yashayapmiz. Ushbu asrda pedagoglar oldida turgan eng muhim vazifalardan biri maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, o'quv tizimini yangidan isloh qilish, zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqish, ularni amaliyotga keng jalb qilish, rivojlangan davlatlar o'quv tizimidagi yangiliklar hamda yutuqlarni o'rganish, bilimlarni ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda yetkazib berishi hozirgi kunning muhim talablaridan biri hisoblanadi.

Maktabgacha talim yoshidagi bolalarning rivojlanishi, ta'lim – tarbiyasi mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash, ta'lim–tarbiya jarayonida innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ahamiyati Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartining eng muhim vazifalaridandir. Bu kabi vazifalardan kelib chiqqan holda ta'lim – tarbiya jarayoniga eng zamonaviy, bola yoshiga mos vositalarni tanlash pedagog xodimlardan bilim va tajriba talab qiladi. Bolaning ta'lim olishi va rivojlanishida esa pedagoglarning ro'li muhim ahamiyatga ega. Chunki maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachi - o'rgatuvchi, bolalar esa qabul qiluvchi hisoblanadi. Bu kabi vazifalarni amalga oshirishda maktabgacha ta'lim tashkiloti tajribali pedagoglaridan mashg'ulotlar jarayonida innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalana olishi, bilimga ega bo'lishni talab qiladi. Hozirgi kunda ta'lim–tarbiya tizimini takomillashtirish bevosita zamonaviy innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni amaliyotga samarali joriy etish darajasi bilan bog'liqligini inkor etib bo'lmaydi. Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayoniga o'ziga xos bo'lgan innovatsion yondashuvdir.

Innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi mashg'ulotlar jarayonidagi ahamiyati foydalanishning metodik ta'minotini yaratish, kompyuterli ta'limiy va rivojlantiruvchi o'yinlarning kompyuter dasturlarini ishlab chiqish va shu asosda tarbiyalanuvchilarning boshlang'ich kompyuter savodxonligini shakllantirish maqolaning ilmiy mohiyatini ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim mashg'ulotlari jarayoniga Innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali bolalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga qiziqtirish, har tomonlama intellektual, ma'naviy-axloqiy, jismoniy rivojlangan, kompyuter savodxonligiga ega, raqobatbardosh, bilimli, salohiyatli, kelajagimiz davomchilarini tarbiyalashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori. 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son.[1]
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tizimiga ilg'or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. 2019 yil 11 iyundagi 487-son.[2]
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020 yil 23 sentabrdagi O'RQ-637-son. [3]
4. Mirazimova Muxabbat (2021). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulotlarni tashkil etishda faollik markazlarining mazmuni.
<https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/authorDashboard/submission/3523>
5. Mirazimova Muxabbat. (2022). Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatlar jarayonida rivojlantiruvchi muhitning ahamiyati.
<https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/authorDashboard/submission/4727>

MAKTAB O'QUVCHILARI UCHUN MO'LJALLANGAN ANDROID ILOVANING IMKONIYATLARI

Mingboyev Ulug'bek Xo'jayevich